

Bank xizmatlari iste'molchilari bilan nizolarni sudgacha hal qilish usullari va imkoniyatlari

Bank xizmatlari iste'molchilari bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha "Kapitalbank" ATB (keyingi o'rinlarda "Bank" deb yuritiladi) bilan nizolar yuzaga kelgan taqdirda, nizolarni sudgacha hal etish O'zbekiston Respublikasi MB ning 02.07.2018-yildagi 3030-sonli qarori va 28.08.1998-yildagi O'RQ-670-I-sonli "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi qonunda tasdiqlangan bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklari faoliyatiga eng kam talablar to'g'risidagi Nizomda, shuningdek, bank va bank xizmatlari iste'molchisi o'rtasidagi shartnomada belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bank xodimlari bank xizmatlari iste'molchilari bilan tuzilgan Shartnomalardan kelib chiqadigan barcha nizo va ziddiyatlarni sudgacha hal qilish uchun barcha sa'y-harakatlarini amalga oshiradilar.

Bunda bank bilan shartnoma tuzgan iste'molchi, birgalikda qarz oluvchi, garovga qo'yuvchi, kafil va Shartnomada ko'rsatilgan boshqa shaxslar Shartnoma taraflari deb e'tirof etiladi.

Bank nizolarni sudgacha hal qilishning quyidagi tartibini taqdim etadi:

- Iste'molchi tomonidan kredit shartnomasi bo'yicha qarzning asosiy summasini to'lash va (yoki) foizlarni to'lash shartlari buzilgan taqdirda - tegishli kredit shartnomasida nazarda tutilgan tarzda nizoni sudgacha hal qilish bo'yicha talabni iste'molchiga yetkazish. Iste'molchi nizoni sudgacha hal etish to'g'risidagi talabda belgilangan muddatda talablarni lozim darajada bajarmagan taqdirda, bevosita yoki Savdo-sanoat palatasining tegishli bo'limi orqali Sud organlariga murojaat qilish;

- Iste'molchi tomonidan kredit majburiyatlari bilan bog'liq bo'lmagan Shartnomalar bo'yicha majburiyatlar buzilgan taqdirda - iste'molchiga tegishli shartnomada nazarda tutilgan tartibda nizoni sudgacha hal qilish talabini yetkazish. Shartnomada nizoni sudgacha hal qilish tartibi mavjud bo'lmagan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda. Iste'molchi nizoni sudgacha hal etish to'g'risidagi talabda belgilangan muddatda talablarni lozim darajada bajarmagan taqdirda, bevosita yoki Savdo-sanoat palatasining tegishli bo'limi orqali Sud organlariga murojaat qilish;

To'g'ridan-to'g'ri yoki Savdo-sanoat palatasining tegishli bo'limi orqali sudga murojaat qilish tanlovi bankda qoladi.